



## FARZAND TARBIYASIDA MAKTABGACHA TA'LIM VA OILANING O'RNI

**Ilmiy rahbar: Alikulova Muxayyo Sherovna**

**Shahrisabz davlat pedagogika institutining**

**“Maktabgacha ta`lim” kafedrası katta o`qituvchisi**

**Talaba: Shamsiddinova Gulida Zahridin qizi**

**Shahrisabz davlat pedagogika institutining talabasi**

**Annotatsiya:** Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasida maktabgacha ta'lim va oila o'rni qay darajada ekanligini va maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorlik ishlari, oilada sog'lom turmush tarzini tashkil etish haqida fikr va munozaralar berilgan.

**Kalit so'zlar:** bola, maktabgacha yosh, oila, tarbiya, milliy madaniyat, ijtimoiy tarbiya.

**Аннотация:** В статье представлены идеи и дискуссии о том, в какой степени дошкольное и семейное место играют роль в воспитании детей дошкольного возраста, организации дошкольного воспитания и семейного взаимодействия и здорового образа жизни в семье.

**Ключевые слова:** ребёнок, дошкольный возраст. семья, воспитание, национальная культура, социальное воспитание.

**Annotation:** The article provides ideas and discussions on the extent to which preschool and family place play a role in raising preschool-age children and the organization of preschool organization and family cooperation and a healthy lifestyle in the family.

**Keywords:** child, preschool age. Family, upbringing, national culture, social education.

### KIRISH

Farzand tug'ilibdiki har tomonlama tarbiya va barcha insonga xos xususiyatlarni oiladan oladi. Bu borada ota-onalar farzand tarbiyasiga befarq bo'lmay e'tiborli bo'lishi, uning nafaqat moddiy balki ma'naviy tomondan ham ta'minlanishi lozimligini ko'rsatadi. Oila muhitida maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash, farzand tarbiyasida ota-ona ma'suliyati hamda maktabgacha yoshdagi bolalar ongida qadriyatlarning yaratish va ulardan amaliy hayotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish kabi masalalar sharq mutafakkirlarining asarlarida ham muhim o'rin egallaydi.

**Mavzuga oid dabiyoatlarning tahlili**



Ulug' alloma va mutaffakirlarimiz ham oilada farzand tarbiyasiga katta e'tibor berganlar. Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy mutafakkirlarning asarlarida oilada bola tarbiyasi masalalari va ularni hal etish yo'llari ko'rsatib berilgan. Abu Nasr Forobiy fikricha bola tarbiyasi bir maqsadga qaratilgan holda olib borilmog'i va u aqliy hamda axloqiy tarbiya birligidan iborat bo'lmog'i lozim degan xulosaga kelgan. Davlat arbobi va buyuk olim Mirzo Ulug'bekning qarashlarida bolaning bilim olishga bo'lgan qiziqishi, havasini oshirishda tarbiyalanayotgan muhit muhim o'rin egallashini ta'kidlanadi. Shunday ekan, avvalambor, bola tarbiyasida oila muhitini to'g'ri tashkil qilish darkor [2;135 - bet]

Ota-onalar voyaga yetayotgan farzandlarining jismoniy barkamolligiga o'ta ma'suliyat bilan qarashlari lozim. Masalan: ertalabki badantarbiya mashqlarini bolalar bilan birgalikda bajarish to'g'ri tashkil etib, doimiy hayot tarziga odatlantirish va kaloriyali vitaminlarga boy ovqatlantirish, dam olishni, tinch uyqini to'g'ri tashkil etish, o'z vaqtida shifokor nazoratidan o'tkazishlari zarur. Bola hayotida mehnat tarbiyasi muhim sanaladi. Bolalarni mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash ularda mehnat qilish odobini shakllantirish, ko'nikmalar hosil qilishda ularning qiziqishlari hisobga olingandagina yaxshi natijaga erishiladi. Ota-onalar bolani maktabga tayyorlash unda mehnat ko'nikma va malakalarini hosil qilishga, mehnatga ehtiyojini tarbiyalashga, boshqalarning mehnatini qadrlashga, o'zgalar mehnatini qadrlashga jiddiy e'tibor berishlari lozim. Maktabgacha yoshdagi bolalarni oilada tarbiyalashni, ota-onalar bilan hamkorlikni yanada takomillashtirish yo'llarini izlab topish, oilaviy tarbiyaning ijtimoiy tarbiya bilan aloqasini mustahkamlash, maktabgacha talim tashkiloti xodimlar, pedagoglar bu sohada ilmiy ish olib boruvchi tadqiqotchilar va uslubchilarning muhim vazifasidir.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Tarbiya jarayonida tarbiyachi va ota-onalar o'rtasida tashkil etiladigan hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik jarayonidir. Tarbiyaning maqsadi – har tomonlama shaxsni shakllantirish. Tarbiya mazmuni – deganda, qo'ilgan maqsad va vazifalar bilan bog'liqlikda tarbiyalanuvchilarning egallashi lozim bo'lgan bilim, malaka, e'tiqod, shaxs sifati va xarakteri xulq-atvor tizimi tushuniladi. Tarbiyaning umumiy vazifalariga quyidagilar kiradi:



- tarbiyalanuvchilarning maqsadga yo'naltirilgan rivojlanishi hamda ularning qator ehtiyojlarini qondirish uchun shart- sharoit yaratish;
- jamiyat rivoji uchun zarur bo'lgan ijtimoiy madaniyatga mos yetarlicha hajmdagi "inson kapitalini" tayyorlash;
- madaniyatlarni kuzatib turish orqali ijtimoiy hayotning barqarorligini ta'minlash;
- ma'lum jins yoshi va ijtimoiy - kasbiy guruhlarining qiziqishlarini hisobga olgan holda ijtimoiy munosabatlar doirasida jamiyat a'zolarining harakartini tartibga solish [1;51-bet]

Maktabgacha ta'lim tashkilotininng maqsadi: bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlash, o'qitish, tarbiyalash, parvarish qilish jarayonida paydo bo'ladigan tomonlarning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini sezilarli amalga oshirivchi talim-tarbiya jarayonini olib borishdir. Bolalar hayotini muhofaza qilish va sog'lig'ini mustahkamlashga doimo g'amxo'rlik qiladi.

Maktabgacha yoshning dastlabki bosqichlarida bolalarda tasavvur olami bo'ladi. Hayotiy tajribaning ortib borishi va tafakkurning rivojlanishi bilan ijodiy xayol tarkib topadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ko'rgazmali-harakatli, ko'rgazmali-obrazli tafakkur xosdir. Buning asosida so'z, mantiqiy tafakkur, tushunchali tafakkur rivojlantiriladi. Tarbiyachi bolalarda tafakkur faoliyatini tarkib toptirish, bu hodisalarni, voqealarni chuqur anglab olish, ularning muhim bo'lgan va muhim bo'lmagan tomonlarni ajratishga o'rgatishi lozim. Maktabgacha talim tashkiloti o'z navbatida bevosita ota-onalar bilan hamkorlikda faoliyat olib boradi. Bu esa bola tarbiyasida oila bilan hamkorlikning eng samarali usullaridan biridir. Ota - onalar bilan olib boriladigan ishlarning mazmuni rang-barang bo'lib, unda ayrim masalalar birgalikda muhokama qilinishini taqozo etadi. Masalan:

- bolalarni tarbiyalashda oilaning roli, ota onalarning vazifasi to'g'risidagi qonunlar, bolalarni maktabga tayyorlash haqida;
- maktabgacha ta'lim tashkilotining yillik ish rejasi to'g'risida;
- ota-onalar jamoatchiligining ish haqidagi masalalar shular jumlasidandir. [2]

## **Tahlil va natijalar**

Bu masalalarni jamoa bo'lib muhokama qilish uchun ota-onalarning guruh va umumiy majlislari, maslahatlar, konferensiyalar ota-onalar kechalarida amalga oshirish mumkin.



Bundan tashqari oilaga tarbiyachining borishi ota-onalar bilan suhbat o'tkazish, ularga maslahat berish, ota-onalarni bolaning maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi hayoti bilan tanishtirish kabi ishlarini misol tariqasida keltirish mumkin. Bu kabi ishlar ota-onalarni farzand tarbiyasiga e'tiborini va uning maktabgacha talim tashkilotidagi hayotiga qiziqishini oshiradi.

Darhaqiqat, insondagi barcha ezgu niyatlar, fazilatlar, qadriyat, vatanni sevish, ota-onani ardoqlash, mehnatsevarlik, saxiylik kabilar dastlab oilada shakllanadi. O'zbek oilasi o'zida ko'p asrlik mustahkam ma'naviy qadriyatlarni saqlaydi va kelgusi avlodlarga etkazadi. Agar oilada sog'lom muhit, kattalar o'rtasidagi munosabatlar yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lsa, shubhasiz bunday oilalarda tarbiya topayotgan yosh avlod kelgusida ota-onani e'zozlovchi, kattalarni hurmat qiluvchi, qalbi va dili pok insonlar bo'lib etishadi. Farzand ko'rish baxtiga muyassar bo'lgan har bir ota-ona farzandiga cheksiz mehr-muhabbat ko'rsatishi bilan birga, uning ishlaridan, yutuqlaridan faxrlanishni, el-yurtiga sodiq fuqaro bo'lishini istaydi. Ota-ona o'z farzandini ilmi bo'lishini, ma'rifat yo'lidan borishi va halol mehnat qilishini orzu qilib, bu borada tinmay mehnat qiladi, farzandiga munosib tarbiya berishga intiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila o'rtasida tashkil etiladigan kechalar har qancha qiziqarli bo'lsa ham cho'zilib ketmasligi, bir yarim-ikki soatdan oshmasligi kerak. Boshqaruvchilar ochiq munozarani o'z vaqtida to'g'ri yakunlashlari, hamma so'zga chiqqanlar qaysi masalada bir fikrga kelganlari, munozarada o'rtaga qo'yilgan, hali o'z echimini kutayotgan muammolarni ta'kidlab ko'rsatishlari lozim.

### **Xulosa va takliflar**

Xulosa qilib aytganda bola tarbiyasida oila, maktabgacha ta'limning o'rni beqiyos. Chunki ilk bor bola tarbiyani oiladan oladi va uni maktabgacha ta'lim tashkilotida shakllantiriladi mustahkamlaydi va nasihatlar, o'yinlar tushuntirishlar orqali elementlarni egallaydi. Egallagan tarbiyani jamiyatda qo'llaydi bu tarbiyani asosi hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalarning ishi ijtimoiy xarakterga ega va ixtiyoriylikka asoslangan bo'lishi kerak. Shuning uchun bu faoliyatga jalb qilishning asosiy yo'li ishontirish, tavsiya va maslahat berishdan iborat bo'lishi kerak. Umuman olganda, oilaviy tarbiyani samarali tashkil etish va bolalar tarbiyasiga e'tiborli bo'lish, ularning har tomonlama sog'lom, yetuk bo'lishini ta'minlaydi.



## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maktabgacha pedagogika. Sh.Sodiqova «Tafakkur bo‘stoni» Toshkent-2013
2. Asqarova Dilorom Qurbonovna. Matematik tasavvurlarni shakllantirish nazariyasi va metodikasi. Maktabgacha ta'lim yo'nalishi uchun o'quv qo'llanma. Namangan – 2020y
3. Adiba Jumanazarova Raximova, SPEO Chirchiq sh, Toshkent region.